



Tayanch-harakat aʼzolarida nuqsoni boʻlgan (bsf) bolalarda nutq rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari

Isodullayeva Iqboloy Sodiqjonovna –

Fargʻona davlat universiteti

“Inklyuziv” taʼlim kafedrası oʻqituvchisi,
pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: iqboloy006@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-9923-0328>

Oʻlmasova Odinaxon Ilxomjon qizi –

Fargʻona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tayanch-harakat aʼzolarida nuqsoni boʻlgan (serebral falaji – BSF) bolalarda nutq rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Bolalarning nutqdagi fonetik, leksik-grammatik va kommunikativ koʻnikmalari, shuningdek, ularning nutqiy faoliyatini shakllantirishga taʼsir etuvchi psixologik va pedagogik omillar koʻrib chiqiladi. Shuningdek, BSF bolalari bilan samarali korreksion mashgʻulotlarni tashkil etish boʻyicha amaliy tavsiyalar berilgan. Korreksion metodlar nutqning turli sohalarini rivojlantirishga, shu jumladan talaffuz, soʻz boyligi, grammatika va muloqot koʻnikmalarini yaxshilashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari pedagoglar, logopedlar va maxsus taʼlim mutaxassislari uchun BSF bolalarining nutqini samarali rivojlantirishda ilmiy-amaliy asos sifatida xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: serebral falaji, nutq rivojlanishi, logopediya, bolalar taʼlimi, pedagogik metodlar, fonematik buzilishlar, korreksiya.

Особенности речевого развития детей с нарушениями опорно- двигательного аппарата (ДЦП)

Аннотация. В данной статье анализируются особенности речевого развития детей с нарушениями опорно-двигательного аппарата (синдром церебрального паралича – ДЦП). Рассматриваются фонетические, лексико-грамматические и коммуникативные навыки детей, а также психологические и педагогические факторы, влияющие на формирование их речевой деятельности. Кроме того, представлены практические рекомендации по организации эффективных коррекционных занятий с детьми с ДЦП. Коррекционные методы направлены на развитие различных аспектов речи, включая произношение, словарный запас, грамматику и коммуникативные умения. Результаты исследования служат научно-практической основой для педагогов, логопедов и специалистов по специальному образованию в вопросах эффективного развития речи детей с ДЦП.

Ключевые слова: синдром церебрального паралича, речевое развитие, логопедия, образование детей, педагогические методы, фонематические нарушения, коррекция.

Peculiarities of speech development in children with musculoskeletal disorders (Cerebral Palsy – CP)

Annotation. This article analyzes the peculiarities of speech development in children with musculoskeletal disorders (cerebral palsy – CP). The phonetic, lexical-grammatical, and communicative skills of these children, as well as the psychological and pedagogical factors influencing the formation of their speech activity, are examined. Practical recommendations for organizing effective corrective sessions with children with CP are also provided. The corrective methods are aimed at developing various aspects of speech, including pronunciation, vocabulary, grammar, and communication skills. The results of the study serve as a scientific and practical foundation for educators, speech therapists, and special education specialists to effectively promote speech development in children with CP.

Keywords: cerebral palsy, speech development, speech therapy, child education, pedagogical methods, phonemic disorders, correction.

KIRISH

Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Istiqlool vazifalari esa bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi. Mamlakatimizda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning sog'lom tengqurlari qatori milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, ma'naviy-ahloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil, yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ma'ruzasida "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz, nafaqatdavom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.", - deb aytgan. Bugungi kunda logopediya fanining oldida turli bolalarda nutqiy nuqsonlarni tuzilishi va mexanizmidan kelib chiqib bartaraf etishning differensiallashgan usul va metodlarini ishlab chiqish vazifasi turibdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

M.B.Eydinova va Ye.N.Pravdina – Vinarskaya, Ye.M.Mastyukovanning fikricha dizartriya bolalar serebral falaji bilan kasallangan bolalarning 65-85 % ida kuzatiladi. Harakat faoliyatining buzilish darajasi bilan dizartriyaning og'irlik darajasi o'rtasida bog'liqlik mavjud. Bolalar serebral falajining og'ir shaklida bola umuman harakatsizlanib qoladi va bunday bolalarning deyarli hammasida dizartriya (anartriya) kuzatiladi. I.V.Ippalitovanning ma'lumotiga ko'ra maxsus muassasalarda tarbiyalanuvchi bolalar serebral falaji bilan kasallangan bolalarning 60-70 % ida dizartriya xos nutq buzilishlari kuzatiladi.

Serebral falaj bilan og'rigan bolalarda buzilishlarning murakkab tuzilishida nutq buzilishlari sezilarli o'rinni egallaydi, ularning chastotasi 80% ni tashkil qiladi. Nutq buzilishlarining xususiyatlari va ularning namoyon bo'lish darajasi, avvalo, miya zararlanishining joylashuvi va og'irlik darajasiga bog'liq bo'ladi. BSFda nutq buzilishlarining asosida nafaqat miyaning ma'lum tuzilmalarining zararlanishi, balki nutq va aqliy faoliyatda g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan bosh miya po'stlog'i qismlarining kechroq shakllanishi yoki to'liq rivojlanmaganligi ham yotadi. Bu holat esa nutq buzilishlariga olib keladi. Bosh miya falaji (BSF) bilan og'rigan bolalarda nutq rivojlanishining orqada qolishi, atrofdagi olam haqidagi bilim va tasavvurlar hajmining cheklanganligi, predmet-amaliy faoliyat hamda ijtimoiy aloqalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan ham bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

BSF bilan og'rigan bolalar nisbatan kam hayotiy tajribaga ega bo'lib, tengdoshlari va kattalarning juda tor doirasi bilan muloqot qiladilar. Ota-onalar tomonidan yo'l qo'yiladigan tarbiya xatolari bolaning nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha ota-onalar bolani haddan tashqari g'amxo'rlik qilishadi, uning o'rniga ko'p ishlarni bajarishga intilib, bolaning barcha istaklarini oldindan sezishadi yoki uning imoishorasi yoki nigohiga javoban bajarishadi. Bunday vaziyatda bolada nutqning rivojlanishi uchun muhim asos bo'lgan og'zaki muloqot ehtiyoji shakllanmay qoladi.

Turli davolash muassasalarida uzoq vaqt bo'lish, ayniqsa hayotning dastlabki yillarida, nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kasal bolalarda ko'pincha onasidan

ajralganda va shifoxonaga yotqizilganda odatiy turmush tarzi o'zgargani sababli yuzaga keladigan salbiy hissiy holat va reaktiv holatlar ham nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

BSFda nutq buzilishlari mexanizmida harakatlanish va atrofdagi dunyoni o'rganish imkoniyatlarini cheklovchi harakat patologiyasining o'zi muhim ahamiyat kasb etadi. Serebral falaji bo'lgan bolalarda nutq va harakat buzilishlari o'rtasida klinik va patogenetik umumiylik kuzatiladi. Patologik tonik reflekslarning uzoq vaqt saqlanib qolishi artikulyatsiya apparatining mushak tonusiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tonik reflekslarning ifodaliligi til mushaklarining tonusini oshirib, nafas olishni, ovoz chiqarishni, og'izni ixtiyoriy ochishni, tilning oldinga va yuqoriga harakatlanishini qiyinlashtiradi. Artikulyatsion motorikaning bunday buzilishlari ovoz faolligining shakllanishini kechiktiradi va nutqning tovush talaffuz qilish tomonini izdan chiqaradi.

Kinestetik idrokning yetarli bo'lmasligi tufayli, bola nafaqat harakatlarni qiyinchilik bilan bajaradi, balki artikulyatsiya a'zolari va qo'l-oyoqlarining holati hamda harakatini ham yaxshi his qila olmaydi. Artikulyatsion motorika buzilishlarining og'irligi bilan qo'llar funksiyasi buzilishlarining og'irligi o'rtasida muayyan bog'liqlik kuzatiladi.

Artikulyatsion motorikaning eng yaqqol ifodalangan buzilishlari oyoq-qo'llari sezilarli darajada shikastlangan bolalarda qayd etiladi. Sanab o'tilgan barcha omillar serebral falajli bolalarda nutqdan oldingi va nutq rivojlanishi buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bolalar serebral falajining giperkinetik darajasi miyaning qobiq osti bo'limlarining jarohatlanishi bilan bog'liqdir. Umumiy va artikulyatsion motorikasidagi buzilishlar quyidagilarda namoyon bo'ladi: muskul tonusining o'zgaruvchanligi (distoniya), harakatlarning ixtiyorsizligi, harakat va nutq aktidagi xissiyotning yo'qligi. Nutqning prosodik tomonlarida kamchiliklarni yaqqol namoyon bo'lishi. Harakat motorikasidagi kabi nutq motorikasida ham kerakli holatlarni ushlab tura olish buzilgan bo'ladi. Harakatdagi kamchiliklaridagi va nutq harakati artikulyatsion, nafas muskulaturasida, halqum paylariga tarqaluvchi tonik spazmlar hisobiga qiyinlashishi mumkin. BSFning geperkinetik shaklida (ekspiramid) ekstrapiramid, yoki boshqacha qilib aytganda qobiq osti dizartriya kuzatilishi mumkin. BSFning giperkinetik shakli uchun ko'p hollarda kuzatiladigan (5 dan 20%gacha) eshitish qobiliyatining susayishi harakterlidir.

Spastik diplegiyada psevdobulbar dizartriya 80%, gemiparitik shaklida esa kasallarning uchdan bir qismida (30-35%) kuzatiladi Harakat sohasidagi turli xil buzilishlar nutq buzilishlarining xilma-xilligi sabab bo'ladi. Bolalar serebral falajining har bir shakli uchun o'ziga xos nutq buzilishlari xarakterlidir. BSFda nutq buzilishlari bolalarning atrofdagilar bilan muloqot qilishini qiyinlashtiradi va ularning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Erta va maktabgacha yoshdagi BSF bilan og'rigan bolalarda nutqni rivojlantirish. BSFda nutqning barcha tomonlari: leksik, grammatik va fonetik-fonematik jihatlarining shakllanishida kechikish va buzilish kuzatiladi. Bosh miya falajligi bo'lgan deyarli barcha bolalarda ilk yoshlarda faol so'z boyligi juda sekin ko'payadi, gap uzunligi ortmaydi, nutq uzoq vaqt davomida tushunarsiz bo'lib qoladi. Passiv so'z boyligi (o'ziga qaratilgan nutqni tushunish) odatda faol so'z boyligidan ancha katta bo'ladi. Nutqning ohang va intonatsiya jihatlarini rivojlanishi, shuningdek, ritmni idrok etish va qayta ishlab chiqarish kechikadi. Bolalarning nutqiy faolligi past bo'lib, ular ko'pincha alohida so'zlardan, kamroq hollarda esa oddiy qisqa gaplardan foydalanadilar. So'z, predmet va eng oddiy harakat o'rtasidagi bog'liqlik qiyinchilik bilan shakllanadi. Ayniqsa, harakatni ifodalovchi so'zlarni o'zlashtirish murakkab kechadi. Ko'pincha bunday so'zlar predmetlarni ifodalovchi so'zlar bilan almashtiriladi. Serebral falaji bo'lgan barcha bolalarda artikulyatsiya apparati

funksiyalarining buzilishi oqibatida, birinchi navbatda, nutqning fonetik tomoni yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi va tovushlar talaffuzi doimiy ravishda buzilgan holda qoladi.

Nutqiy rivojlanishning boshlang'ich bosqichida ko'pgina tovushlar mavjud bo'lmaydi, keyinchalik ularning bir qismi buzib talaffuz etiladi yoki artikulyatsiya jihatidan yaqin tovushlar bilan almashtiriladi, bu esa nutqning umumiy tushunarsizligiga olib keladi. Serebral falajli ko'pchilik bolalarda fonemalarni g'ayritabiiy (patologik) o'zlashtirish xosdir, bu jarayon normal ontogenezdagi ketma-ketlikka mos kelmaydi. Nutqning fonetik tizimini o'zlashtirishning dastlabki bosqichlaridayoq nuqsonli artikulyatsion shakllar paydo bo'lishi mumkin, bular keyinchalik patologik nutq stereotipining shakllanishi davomida mustahkamlanib boradi.

BSFda ko'pchilik bolalarda fonematik idrokning buzilishi kuzatiladi, bu esa tovush tahlilida qiyinchiliklarga olib keladi. Og'ir holatlarda bolalar tovushlarni eshitib ajrata olmaydilar, so'zlardagi tovushlarni farqlay olmaydilar va bo'g'inlar qatorini takrorlay olmaydilar. Yengil holatlarda esa faqat noto'g'ri talaffuz qilinadigan tovushlarni o'z ichiga olgan so'zlarni tahlil qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Maktabgacha yoshdagi ko'pchilik bolalar atrofdegilar bilan ikki-uch so'zdan iborat oddiy qisqa gaplar orqali muloqot qilishadi. Nutqiy rivojlanishning yetarli darajasiga ega bo'lishlariga qaramay, bolalar muloqotda o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishmaydi (berilgan savollarga ko'pincha bir xil, qisqa javoblar berishadi). BSF bilan og'rikan bolalarning ko'pchiligida kasallikning o'ziga xos xususiyatlari tufayli nutqning lug'at tarkibida o'ziga xos buzilishlar kuzatiladi. Tabiiy rivojlanish jarayonidagi cheklangan so'z boyligi ko'p jihatdan bilim hajmining cheklanganligi, tizimsizligi, noaniqligi, ba'zan esa atrof-muhit haqidagi tasavvurlarning xato bo'lishi bilan bog'liq. Bunday bolalar cheklangan lug'at imkoniyatlariga ega bo'lib, atrof-muhitdagi turli narsa va hodisalarni tavsiflash uchun zarur til vositalariga ega emaslar. Lug'at boyligining o'ziga xos tarzda shakllanishi ko'plab til kategoriyalarini o'zlashtirishning buzilishida namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, narsalarning harakatlarini, belgilarini va sifatlarini ifodalovchi so'zlar zaxirasi juda cheklangan bo'ladi. Bolalar predloglarni, predlogli konstruksiyali so'z birikmalarini, shuningdek fazoviyvaqt munosabatlarini va mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni tushunish va qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular so'zlarning leksik ma'nosini qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar (ko'p ma'noli so'zlardan faqat aniq ma'noni ajratib oladilar, uning kontekstdagi ma'nosini tushunmaydilar; talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlarning ma'nolarini chalkashtirib yuboradilar).

Serebral falaji bo'lgan bolalarda ko'pincha nutqning grammatik tuzilishi shakllanishidagi buzilishlar kuzatiladi. Bu asosan leksik buzilishlar bilan bog'liq bo'ladi. Grammatik shakllar va kategoriyalar juda sekin va katta qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi. Buning sababi ko'p jihatdan nutqiy muloqotning cheklanganligi, eshitish idrokining buzilishi, diqqatning susayishi, nutq faolligining pastligi hamda bilish faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Bolalar gap tuzishda, gapda so'zlarni o'zaro moslashtirishda va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri qo'llashda qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Ko'pincha so'z tartibi buzilishi, so'zlarning tushib qolishi, gaplarning tugallanmaganligi kuzatiladi. Shuningdek, bir xil so'zning (masalan, "bu yerda", "mana" kabi) ko'p marta takrorlanishi ham uchraydi. Bu holat bolalarning nutqida ko'p kuzatiladi. Hatto maktabda o'qishni boshlash paytiga kelganda ham, serebral falajlik bilan og'rikan bolalarning ko'pchiligi gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish ko'nikmalarini deyarli egallamagan bo'ladi. Ularda bog'lanishli nutqning yetarli darajada shakllanmaganligi aniq ko'zga tashlanadi.

Serebral falajli bolalarda nutqiy rivojlanishning yosh dinamikasi ko'p jihatdan aqliy qobiliyat holatiga bog'liq bo'ladi. Bolaning aql darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, nutq rivojlanishining ijobiy dinamikasi shunchalik kuchliroq, logopedik ishlarning natijalari ham

shunchalik samaraliroq bo'ladi. Bolalar serebral falajidagi nutq buzilishlari ko'pincha uchrab turadigani dizatriyadir.

Quyida bolalar serebral falajligidagi dizatriya holatida nutqiy nafasni shakllantirish texnologiyalari keltirilgan.

Birinchi bosqich: umumiy nafas olish mashqlari.

Ikkinchi bosqich: nutq uchun nafas olish gimnastikasi.

Nafas olish gimnastikasining asosiy qoidalari:

- bolani haddan tashqari charchatib qo'ymaslik kerak.
- uning yelkalari va bo'ynini taranglamasligi hamda noto'g'ri holatda o'tirmasligiga e'tibor qaratish lozim.
- bolaning diqqatini diafragma, qovurg'alararo mushaklar va qorin pastki qismi mushaklarining harakatidan keladigan his-tuyg'ularga qaratish kerak.
- bola barcha nafas olish harakatlarini bir maromda, sanash yoki musiqa jo'rligida bajarishi lozim.
- nafas gimnastikasi ovqatlanishdan oldin, yaxshi shamollatilgan xonada o'tkazilishi kerak.

XULOSA

Shunday qilib serebral falajli bolalar nutqiy nafasini shakllantirish, leksikasini takomillashtirish va boyitishning spetsifikasi sifatida uni predmet-amaliy va o'yin faoliyati bilan uzviy bog'liq holda olib borishi, shuningdek sensor funksiyalarini rivojlantirish va ularni korreksiyasini ongli faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda tashkil qilishni ko'rsatish mumkin. So'z ustida uning til birligi sifatida va ayniqsa uning ko'p ma'noligini o'rganish haqidagi logopedik ishlarning muhim yo'nalishi katta ahamiyatga egadir. Serebral falajlangan bolalarda grammatik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ularning aqliy va nutqiy rivojlanishlariga kopleks tarzda yondoshish kerak. Bolaning yaxshi rivojlangan nutqi uning umumiy kamol topishi, jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va maktabda samarali ta'lim olishining muhim shartidir. Nutq buzilishlari barcha ruhiy jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, bolaning umumiy faoliyati va xulq-atvoriga sezilardi darajada aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, –2017.
2. M.B.Rizashova Serebral falaj bolalar bilan korreksion-logopedik ish jarayonida ota-ona va defektolog hamkorligi. Vestnik OshGU – Osh, 2008-№5. 102-105 str
3. Мастюкова Елене Михайловна Дефектология. –2003. №5. С. 95
4. Эйдинова, Мария Борисовна Параличи спастические у детей Москва : Акад. пед. наук, 1959
5. Детский церебральный паралич. Коррекционно-развивающая работа с дошкольниками И. Ю. Левченко, О. Г. Приходько Академия , 2011
6. Выготский Л.С.Вопросы детской психологии/Серия: Онтология мысли-М.:Издательство Юрайт,2016.-199с.
7. I.Isodullayeva “Korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar harakat-tayanch tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishning tarkibiy qismi sifatida”. Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari va neyropsixolingvistika muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. – Farg'ona, 2024-y.